

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LG'USI O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA  
KASBIY SOHALARGA YO'NALTIRIB O'QITISH TAMOYILINING O'RNI**

*Barakayev Murod*

*professor Nizomiy nomidagi O'zbekiston MPU*

*Barakayeva Mavjuda*

*o'qituvchi Nizomiy nomidagi O'zbekiston MPU*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20009634>

*Annotatsiya. Maqolada raqamli ta'lim sharoitida maktabda kasbiy sohalarga yonaltirib o'qitish va bo'lg'usi o'qituvchilarni bunday kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari, unda mustaqil ta'limni o'rni yetarli darajada ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar. Raqamli ta'lim, kasbiy faoliyat, kasbiy sohalarga yonaltirib o'qitish, mustaqil ta'lim, kasbiy kompetensiyalar.*

**РОЛЬ ПРИНЦИПА ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО  
ОБУЧЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ**

*Аннотация. В статье в достаточной степени раскрываются возможности профессионально-ориентированного обучения в школе в условиях цифрового образования и подготовки будущих учителей к такой профессиональной деятельности, а также роль самостоятельного обучения в ней.*

*Ключевые слова. Цифровое образование, профессиональная деятельность, профессионально-ориентированное обучение, самостоятельное обучение, профессиональные компетенции.*

**THE ROLE OF THE PROFESSIONAL-ORIENTED TEACHING PRINCIPLE IN  
TRAINING FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL EDUCATION**

*Abstract. The article sufficiently reveals the possibilities of vocational-oriented school education and preparing future teachers for such professional activities in the context of digital education, as well as the role of independent learning within it.*

***Keywords.** Digital education, professional activity, vocational training, self-education, and professional competencies.*

Zamonaviy ta'limda “**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim**” tamoyili ustivor hisoblanib, u asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularga ta'limning faol usullarini to'g'ri tanlay olish va ulardan o'rinli foydalana olishni o'rgatish:

- ular tomonidan kasbiy bilim va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirishga;
- qiziqishni va kasbiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- bo'lg'usi matematika o'qituvchi uchun kasbiy faoliyatida eng muhim hisoblangan muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi.

Mustaqil ishlash jarayonida talabalar nafaqat fanning o'quv materialini mustahkam va chuqur o'zlashtiradilar, balki tadqiqotchilik va kasbiy faoliyat ko'nikmalarini, o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatini, kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarda mas'uliyatli va konstruktiv qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Oliy ta'lim muassasasida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda pedagogik faoliyatning mazkur qismining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi [1]:

- talabalarining o'quv (audatoriyada) va mustaqil (audotoriyadandan tashqarida) faoliyatining birligi;
- ta'limni individuallashtirish;
- talabalarining o'quv va kognitiv faoliyatini kasbiy-pedagogik faoliyatga o'tkazishga hissa qo'shadigan kasbiy faoliyatga yo'naltirish;
- talabalarining ongi va ijodiy faolligi;
- mustaqil ish uchun topshiriqlarning mumkin bo'lgan qiyinlik darajasi va ularni bajarish uchun sarflanadiga vaqtini hisobga olish;
- mustaqil ishlarni tizimli, izchil va uzluksiz tashkil etish kabi tamoyillar.
- Talabaning mustaqil ishi samarali bo'lishi uchun, ayniqsa kredit-modul tizimi sharoitida quyidagi didaktik shartlarni bajarish talab etiladi:
- auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni talabalar uchun qulay sharoitda va ma'lum metodika asosida tashkil etish;

➤ mustaqil ishning o'quv-metodik ta'minotini yaratish, bunda o'quv va metodik materiallarni ishlab chiqish;

talabalar topshiriqlarni bajarish uchun: uning hajmi, talabalar vaqt yuklamasini hisobha olgan holda bajarishi uchun sarflanadigan vaqt, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ma'ruza matnlari, didaktik tarqatma materiallari; o'quv va nazorat topshiriqlari, internet resurslaridan foydalanish uchun tavsiyalar, masofaviy o'qitish tizimini joriy etish;

talabalarning mustaqil ishi natijalarini tizimli monitoringini amalga oshirish va h.k.[3].

Yuqorida qayd etilgan metodik ta'minot qanchalik darajada mukammal bo'lmasin, bari-bir talabada jiddiy barqaror motivatsiya mavjud bo'lmasa ko'zlangan maqsadga erishishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Shuning uchun ham, **birinchi navbatda**, talabalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Motivatsiyani shakllanganligi u tomonidan topshiriqlarni tushungan holda bajarilishida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida mustaqil ish natijalarini asoslay olishida, laboratoriya ishlarini mustaqil ravishda bajara olishida namoyon bo'ladi.

Mustaqil ish natijalari talaba ma'ruza materialini, laboratoriya ishlarini yaxshi tushunishga yordam berishi o'qituvchi tomonidan asoslab berilishi, natijaning samarali bo'lishida muhim hisoblanadi [2].

Bunda mustaqil ish mazmuni talabalarda shakllangan pedagogik kompetentsiyalarni o'lchay olish va tekshirishni amalga oshirishni ham ta'minlashga yo'naltirilish muhimdir. Shuningdek, kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni o'lchashning asosiy usullari mavzu bo'yicha faktik materiallarni bilishni tekshirish uchun ko'p testlar emas, balki talaba tomonidan pedagogik amaliyoti davomida olingan o'quvchilarning o'quv natijalari aks ettirilgan **portfoliolar, video materiallar, taqdimotlar** bo'lishi maqsadga muvofiq.

Talabalarning ta'lim natijalarini baholashning asosiy maqsadi, **birinchidan**, maktabning o'quv jarayoni uchun, **ikkinchidan** esa, talabaning o'quv amaliyoti davomida muvaffaqiyatli ishlashiga hissa qo'shishini ta'minlaydigan kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayoni qay darajada samarali bo'lganligini aniqlashdir. U pedagogik amaliyot jarayonida o'qituvchi sifatida:

- o'quvchilarning xulq-atvori va shaxsiy fazilatlarining o'zgarishi;
- ularning pedagogik faoliyatga, mazkur jarayondagi o'z burchlariga, o'quvchilarga, ota onalarga va hamkasblariga bo'lgan munosabati;

➤ oliy ta'lim muassasida egallagan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini pedagogik amaliyot jarayonida amaliy qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini kasbiy sohalarga yo'naltirib oqitishning **nazariy jihatlari** quyidagilardan iborat:

1) Bo'lg'usu matematika o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini oldindan faol rejalashtirish, ta'lim jarayonida uni samarali amalga oshirish, mazkur jarayondagi faoliyatni adolatli va shoffof baholash, nazorat qilish hamda unida uchraydigan xatolarni tuzatishga talabani o'zini ham jalb qilish. Bunda professor-o'qituvchi tomonidan faol ishtirogini ta'minlash kerak.

2) Har bir bo'lg'usi matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan o'z ta'lim traektoriyasini aniqlash va ta'lim loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha professor-o'qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish zarur.

3) Bo'lg'usi matematika o'qituvchisini pedagogik amaliyot davrida o'qituvchi sifatida pedagogik faoliyatda ishtirok etishi uchun yetarli shart-sharoit yaratish zarur.

4) Doimiy ravishda mustaqil bilim olish, o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashgan holda mas'uliyatli munosabatda bo'lishni rivojlantirish zarur.

5) Kasbiy sohalarga yo'naltirib oqitishga asoslangan holda ta'lim jarayonini tashkil eta oladigan bo'lg'usi o'qituvchilarni, jumladan matematika o'qituvchisini tayyorlashda har bir oliy ta'lim muassasi umumta'lim maktabiga nafaqat maktab o'quvchilariga ta'lim berish joyi, balki bo'lg'usi o'qituvchlarni tayyorlashning amaliy bazasi sifatida yondoshishi kerak.

6) Zamonaviy sharoitida bo'lg'usi o'qituvchlarni tayyorlashda ish beruvchining talab va ehtiyojlarini yetarli darajada o'rganish va mutaxassislarni tayyorlashga shu nuqtai nazardan yondashish kerak.

7) Imkoniyatlardan kelib chiqqan holda pedagogika oliy o'quv yurti bitiruvchilarining pedagogik amaliyotini ishga boradigan o'quv yurtlari yoki maktablarda tashkil etish va buning uchun pedagogik amaliyot mazmuni, shakllari va metodlarini muayyan ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishi hamda oliy ta'lim va ish beruvchi ta'lim muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlik, integratsiya o'rnatish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Barakayev va b. Matematika o'qitish metodikasi (Mustaqil ta'lim). O'quv qo'llanma. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2019, 160 bet.



2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
3. Barakayev M. “Masala va muammoli vaziyat” tushunchalarini o‘zaro aloqadorligiga erishish - anglangan holda bilim olish omili sifatida. //Transactions Of the international scientific conference "modern problems of applied mathematics and Information technologies - al-KHorezmiy 2016", 9-10 november, 2016, Труды Международной конференции// - Бухоро, 2016, б.167-169.